XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING

QARORI

2024 - yil 5 - fevral VI-75-13-11-160-K/24 Toshloq tumani hokimligi

Tumanda 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Toshloq tumanida 2024-yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirilib, shunga ko‘ra tuman bo‘yicha 20 151 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Xususan,

Toshloq tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 20 151 nafar;

Toshloq tumanida 2024-yilda Investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari hisobiga 1 647 nafar;

Toshloq tumanda 2024-yilda aholini Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari 12 069 nafar;

Toshloq tumanida 2024-yilda Moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 6 100 nafar;

Toshloq tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida

aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 335 nafar.

Tumanda band bo‘lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 - 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha shakllantirilgan prognoz ko‘rsatkichlari to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Mirzaraxmonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Toshloq tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining taqsimoti yig‘masi 1-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024-yilda investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining taqsimoti yig‘masi 2-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024-yilda moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining taqsimoti yig‘masi 3-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanda 2024-yilda aholini qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining taqsimoti yig‘masi 4-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida

aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining taqsimoti yig‘masi 5-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari 6-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 7-ilovaga muvofiq;

Toshloq tumanida 2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshloq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov) hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Mirzaraxmonov)ga;

- Dasturda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish;

- Mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarini tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borish;

- Kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

- Mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish;

- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritish kabi vazifalar yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Mamajonov), tumandagi bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali tumanda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorni nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Djurabayev**

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
1-ilova

Toshloq tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilishning

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	Jami	shundan:			sohalar kesimida:											
			Doimiy	Mavsumiy	Vaqtinchalik	Investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga	*shundan:*		Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga	*shundan:*		Qishloq xo‘jaligida	*shundan:*		Qurilish sohasida	*shundan:*	
							Yirik (tarmoq) investitsiya loyihalari	*Xududiy investitsiya loyihalari*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*		*Doimiy*	*Mavsumiy*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*
Toshloq tumani		20 151	6 023	10 887	3 241	1 647	*280*	*1 367*	6 100	3 076	*3 024*	12 069	*1 182*	*10 887*	*335*	*118*	*217*
1	1-sektor	4 393	1 597	2 160	636	710	*71*	*639*	1 222	630	*592*	*71*	*26*	*45*	*66*	*22*	*44*
2	2-sektor	4 496	1 204	2 506	786	338	*57*	*281*	1 348	607	*741*	*122*	*42*	*80*			
3	3-sektor	7 099	1 705	4 093	1 301	214	*89*	*125*	2 255	1 034	*1 221*	*76*	*28*	*48*			
4	4-sektor	4 163	1 517	2 128	518	385	*63*	*322*	1 275	805	*470*	2 427	*299*	*2 128*			

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
2-ilova

Toshloq tumanida 2024-yilda investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	*jumladan:*							
			Yirik *(tarmoq)* **investitsiya loyihalari**	*shundan:*			**Xududiy investitsiya loyihalari**	*shundan:*		
				Sanoatda	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*		*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*
Toshloq tumani		**1 647**	**280**	***250***	***30***		**1 367**	***1 072***	***254***	***41***
1	1-sektor	**710**	**71**	*65*	*6*		**639**	*598*	*23*	*18*
2	2-sektor	**338**	**57**	*53*	*4*		**281**	*195*	*82*	*4*
3	3-sektor	**214**	**89**	*78*	*11*		**125**	*51*	*67*	*7*
4	4-sektor	**385**	**63**	*54*	*9*		**322**	*228*	*82*	*12*

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
3-ilova

Toshloq tumanida 2024-yilda moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:																						
			Doimiy	vaqtinchalik	Xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari (yuridik va YATTlardagi yangi ish o‘rni)	Jumladan:		shundan:																		
						Doimiy	vaqtinchalik	Mehmonxona va turizm xizmatlari	Ijtimoiy sohalar		Umumiy ovqatlanish	shundan:		Savdo	shundan:		Maishiy xizmatlar	shundan:		Boshqa xizmat ko‘rsatish	shundan:		Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish	shundan:		Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish
									Ta’lim xizmatlari	Sog‘liqni saqlash xizmatlari		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik	
	Toshloq tumani	6100	3076	3024	1525	813	712	20	67	21	27	13	14	1241	618	623	23	11	12	126	63	63	3304	992	2312	1271
1	1-sektor	1 222	630	592	303	159	144		11		6	3	3	253	132	121	3	1	2	30	12	18	660	212	448	259
2	2-sektor	1 348	607	741	322	149	173		7	5	8	4	4	268	115	153	6	3	3	28	15	13	752	184	568	274
3	3-sektor	2 255	1034	1221	557	279	278	20	35	6	3	1	2	442	188	254	8	4	4	43	25	18	1245	302	943	453
4	4-sektor	1 275	805	470	343	226	117		14	10	10	5	5	278	183	95	6	3	3	25	11	14	647	294	353	285

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
4-ilova

Toshloq tumanda 2024-yilda aholini qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilishning

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:							jumladan:									
						shundan:			shundan:			shundan:					shundan:			shundan:	
			Doimiy	Mavsumiy	Agro klasterlarda	doimiy	mavsumiy	Fermer xo‘jaliklarida	doimiy	mavsumiy	Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish (e-auksion)	doimiy	mavsumiy	Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish (mavsumiy)	Tomorqada bandlik (mavsumiy)	Pillachilik	doimiy	mavsumiy	Suv xo‘jaligi ob’yektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan	doimiy	mavsumiy
Toshloq tumani		12069	1182	10887	412	*82*	*330*	2 209	*291*	*1918*	944	315	629	732	922	6 662	*483*	*6 179*	188	11	177
1	1-sektor	2 395	235	2 160	83	*17*	*66*	438	*57*	*381*	187	62	125	120	206	1 306	*96*	*1 210*	55	3	52
2	2-sektor	2 739	233	2 506	89	*16*	*73*	458	*53*	*405*	190	57	133	77	273	1 616	*102*	*1 514*	36	5	31
3	3-sektor	4 508	415	4 093	150	*28*	*122*	801	*100*	*701*	338	108	230	382	102	2 672	*177*	*2 495*	63	2	61
4	4-sektor	2 427	299	2 128	90	*21*	*69*	512	*81*	*431*	229	88	141	153	341	1 068	*108*	*960*	34	1	33

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
5-ilova

Toshloq tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlashning

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:											
			Doimiy	Mavsumiy	Uy-joy qurilishi	Shundan		Sanaot korxonalar qurilishi	Shundan		Ijtimoiy ob’yektlar qurilishi	Shundan		Avtomobil va temir yo‘l qurilishi	Shundan	
						doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy
Toshloq tumani		**335**	**118**	**217**	***169***	***55***	***114***	***17***	***6***	***11***	***93***	***37***	***56***	***56***	**20**	**36**
1	1-sektor	**66**	**22**	**44**	*34*	*11*	*23*	*3*	*1*	*2*	*18*	*7*	*11*	*11*	3	8
2	2-sektor	**71**	**26**	**45**	*36*	*11*	*25*	*3*	*1*	*2*	*20*	*8*	*12*	*12*	6	6
3	3-sektor	**122**	**42**	**80**	*61*	*19*	*42*	*6*	*2*	*4*	*34*	*13*	*21*	*21*	8	13
4	4-sektor	**76**	**28**	**48**	*38*	*14*	*24*	*5*	*2*	*3*	*21*	*9*	*12*	*12*	3	9

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
6-ilova

2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hududlar nomi	Jami banlik xizmatlarini ko‘rsatish	jumladan:						
			Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish	Ishga joylashtirish	Subsidiyalar ajratish*	shundan:		
							Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan	Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan	Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan
Toshloq tumani		**3 300**	750	614	1 617	**319**	22,0	15,0	282,0
1	1-sektor	**710**	162	132	349	**67**	4,0	2,5	60,8
2	2-sektor	**649**	147	120	317	**64**	6,0	3,1	55,3
3	3-sektor	**1 101**	250	205	539	**107**	8,0	5,2	94,0
4	4-sektor	**840**	191	157	412	**80**	4,0	4,2	71,9

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
7-ilova

2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Mas’ul bank	Hududlar	Jami	shundan,			
				o‘zini o‘zi band qilish hisobiga	yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga	yangi korxonalar hisobiga	Dehqon xo‘jaliklari hisobiga
		Toshloq tumani	**10 670**	**4 270**	**500**	**500**	**5 400**
1	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB	1-sektor	2 845	985	108	102	1 650
2		2-sektor	2 325	905	97	118	1 205
3		3-sektor	3 374	1 342	162	146	1 724
4		4-sektor	2 126	1 038	133	134	821

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-75-13-11-160-K/24-son qaroriga
8-ilova

2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Jami	*shundan,*		
			Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi	**Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi**	**Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi**
Toshloq tumani		***1 304,8***	***1 061,1***	***142,5***	***101,2***
1	1-sektor	*343*	*274,7*	*40*	*28*
2	2-sektor	*274*	*202,3*	*42*	*30*
3	3-sektor	*376*	*328,3*	*28*	*20*
4	4-sektor	*312*	*255,9*	*33*	*23*